


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

Ro‘yxatga olindi

BD-5112100 -3.04

2016- yil “25” 08



Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim
Vazirligi

2016- yil “25” 08

KASB HUNARGA YO‘NALTIRISH

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100 000	–	Gumanitar
Ta‘lim sohasi:	110 000	–	Pedagogika
Ta‘lim yo‘nalishi:	5112100	–	Mehnat ta‘limi

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil "25" 08 dagi "335"-sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2016-yil "6" 08 dagi "3"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lim muassalari bilan kelishildi.

Tuzuvchilar:

- O.A Qo'ysinov. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Kasb ta'limi metodikasi" kafedrası mudiri, pedagogika fanlar nomzodi, dotsent
- H.S.Yakubova Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Kasb ta'limi metodikasi" kafedrası katta o'qıtuvchisi
- S.Y.Rajabova. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Kasb ta'limi metodikasi" kafedrası o'qıtuvchisi

Taqrizchilar:

- M.Z.Murtazaev A.Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika instituti "Mehnat ta'limi va umumtexnika fanlari" kafedrası pedagogika fanlar nomzodi, dotsent
- S.S.To'laganova Toshkent shahar Uchtepa tumani 123-maktab umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'quv-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (2016-yil 14.09 dagi «10»-sonli bayonnomasi)

Kirish

Ushbu dastur talabalarning mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya, umumkasbiy fanlardan olgan bilim va ko'nikmalarini amalga tadbiq etish, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini kasb hunarga yo'naltirish, kasblar olami bilan tanishtirish, kasbga ko'nikish, moslashish tanlab olgan kasbni shakllantirish yoki boshqa kasbni tanlash, tashkiliy shakllari hamda vositalari, shuningdek, ularga oid rejalashtiruvchi hujjatlar mazmuni bilan tanishtirish masalalarini qamraydi.

Fanning o'quv maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan **maqsad** – talabalarni har tomonlama barkamol rivojlangan, hozirgi zamon ruhida tarbiyalangan, bozor iqtisodiyoti davrida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirishga oid dolzarb muammolarni ijobiy hal eta oladigan, milliy istiqloq g'oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs –mehnat ta'limi o'qituvchi sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarini amalga oshirishni shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarga pedagogik-psixologik bilimlar, kasb hunarga yo'naltirish ishlarini olib borish tashkil etish ko'nikmasi; mehnat ta'limi fanini o'qitish jarayonida kasb hunarga yo'naltirish ishini tashkil etish; pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish; mehnat ta'limini o'qitishni tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini (har bir kasbga o'rgatishning mazmuni va o'ziga xosligini mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda) o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Kasb hunarga yo'naltirish” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- talim jarayonida turli usullar bilan o'quvchilarning xususiyatlarni o'rganish ya'ni; kuzatish, diagnostik suhbatlar, kasbga moslashish, profiogramma kabi tushunchalarni chuqur anglab, ularni tadbiq etishga tayyor bo'lishlari zarur;

- kasb hunarga yo'naltirish jaryonida o'quv moddiy bazasini tashkil etish (kerakli anketalar, diagnostik savolnomalar, testlar va x.z.);

- davlat talim standartlarining ishlab chiqish mezonlari va unga qo'yiladigan talablar;

- kasbiy tanlov bo'yicha tashxis markazlarining faoliyati;

- ixtisoslik yo'nalishining istiqboldagi tarraqqiyoti va unga kasbiy jixatdan moslashib borish yo'llari to'g'risida *bilishi kerak*;
- mutaxassislik va yo'nalishlar bo'yicha Davlat ta'lim standartlari mazmunini;
- kasbiy tayyorgarligi bo'yicha o'quv rejasi va dasturlar mazmunini;
- kasb-hunar kollejlari to'g'risida o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish;
- o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida amalda kasbga yaroqlilikni, professional rejalarni to'g'ri tashkil etish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*;
- Qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash
- kasb hunarga yo'naltirish ishlarini rejalashtirish;
- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish;
- bandlik xizmati bilan ishlash;
- o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash bo'yicha anketalar, diagnostik-differensial savolnomalar va testlardan foydalanish;
- ota-onalar va jamoat tashkilotlari bilan ishlash *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Kasb hunarga yo'naltirish fani umumkasbiy fan hisoblanib, 7-semestrda o'qitiladi. Dasturi amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan (matematika, yosh fiziologiyasi va gigiyenasi, iqtisodiyot nazariyasi va h.k.) umumkasbiy (umumiy pedagogika, umumiy psixologiya, mehnat ta'limini o'qitish metodikasi, uy-ro'zg'or asoslari, mehnat ta'limi praktikumi, texnik ijodkorlik va dizayn, xalq hunarmandchiligi, elektrotexnika robototexnika va elektronika, materialshunoslik, va h.k.) va ixtisoslik (texnologiya va dizayn, servis xizmati, qishloq xo'jaligi asoslari) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Talabalar fanni o'zlashtirish jarayonida ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalar, ularda qo'llaniladigan texnologik jarayonlar hamda ishlab chiqarish munosabatlari to'g'risida to'liq tassavurga ega bo'ladilar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni mehnat ta'limi tarkibida kasbga hunarga yo'naltirish ularning zamonaviy va milliy kasb hunarlarni o'zaro uyg'unligini ta'minlagan holda bilim, ko'nikma, malakalarni egallashlarini ta'minlaydi. Mazkur dastur bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilariga kasb hunarga yo'naltirish ishlarini o'rgatishga xizmat qiladi.

Fani o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarining kasb hunarga yo'naltirish fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalaniladi. Ma'ruza, seminar va laboratoriya darslarida mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari umumiy mazmuni

O'quvchilarni kasbga hunarga yo'naltirish nazariyasi va metodikasi

Yoshlarni kasb hunarga yo'naltirishning nazariy shart-sharoitlari: fanning maqsadi va vazifalari; fanning mazmuni «Ta'lim to'g'risida»gi qonun; «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Kasb hunarga yo'naltirish asoslari to'g'risidagi ta'limot: fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot; kasbni to'g'ri tanlashning ahamiyati; umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishini shakllantirish.

Kasb hunarga yo'naltirish ishining pedagogik asoslari

Mehnat ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar. O'qituvchining kasb hunarga yo'naltirishdagi faoliyati va boshqaruvchanligi. O'qituvchining psixologik-pedagogik, umumkasbiy tayyorgarligi. Kasbga yo'naltirish bosqichlarining mazmuni: kuzatish; diagnostik suhbatlar; birinchi bosqich - 1-4 sinf; ikkinchi bosqich - 5-9 sinf; uchinchi bosqich - akademik litsey, kasb- hunar kolleji.

O'zbekiston xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari

Xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari: sanoat – qishloq xo'jaligi, kichik korxonalar, kichik biznes. Xalq xo'jaligidagi kasblar va ularning malaka tavsifnomalari. Kichik mutaxassislarni tayyorlash tizimi.

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi

Akademik litseylar va kasb hunar kollejarining yo'nalishi, ularning bir biridan farqi umumiy tomonlari. O'quvchi yoshlarni kasb hunarga yo'naltirish tizimi.

Fan texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqboli

Fan texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari. Yangi texnika va ilg'or texnologiya tushunchasi. Zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabatlari bilan uzviyligi.

O'rta maxsus ta'limi tasniflagichi

O'rta maxsus kasb hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi.

Kasb hunarga yo'naltirish ishining maktab tizimi

O'qituvchi shaxsi, fan o'qituvchilari, sinf rahbari; o'quv ishlari bo'yicha mudir, o'quv muassasalari psixologi. Sinf rahbarining kasb hunarga yo'naltirishdagi o'rni. Kasb hunarga yo'naltirish komissiyalarini tashkil qilish. O'quvchilar bilan ishlash. Ota-onalar bilan ishlash.

Kasb hunarga yo'naltirish ishlari mazmuni va ahamiyati

Kasblar xarakteristikasi – professiogramma. Kasb hunarga yo'naltirish ishlariga qo'yiladigan talablar. Maktabda mehnat ta'limi darslarida kasb hunarga yo'naltirish. Boshqa soha mutaxassisliklar bilan tanishtirish. O'quv muassasasi atrofidagi korxonalar bilan tanishtirish. Maktabdan tashqari tashkilotlarga ekskursiyalarni tashkil qilish, ommaviy axborot vositalarining ahamiyati.

Kasb-hunarga yo'naltirishning ijtimoiy va psixofiziologik asoslari

Kasb hunarga yo'naltirish ishlarining ijtimoiy asoslari. Kasb hunarga yo'naltirish ishlarining psixologik asoslari. Kasb hunarga yo'naltirish ishlarining fiziologik asoslari. Kasb hunarga yo'naltirish ishiga raxbarlik qilish va uni rejalashtirish. Bo'lajak o'qituvchilarni kasb hunarga yo'naltirish ishiga tayyorlash tizimi.

Kasb-hunarga yo'naltirishning tarkibi

Sinf rahbari. Sinf rahbarining kasb hunarga yo'naltirishdagi o'rni. O'quv muassasasi rahbarining kasb hunarga yo'naltirishni tashkil etishi. O'quv ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosarlarining vazifasi. O'quv muassasasidan tashqari tarbiyaviy ishlarning takomillashtirish mazmuni. Talabalarni kasb hunarga yo'naltirish ishiga tayyorlashning mazmuni.

Pedagogik-psixologik fanlarni o'rganishda talabalarni kasb hunarga yo'naltirish ishiga nazariy-metodik jihatdan tayyorlash

Psixologiya fanining kasb hunarga yo'naltirishdagi ahamiyati. Pedagogika fanining kasb hunarga yo'naltirishdagi ahamiyati. O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish tizimida IQ testlarning o'rni.

Darsdan hamda o'quv muassasasidan tashqari kasb hunarga yo'naltirish ishlarini rejalashtirish va tashkillashtirish

Ekskursiyalarga tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish hamda uning yakuni bo'yicha hisobot ishlari. To'garak ishlarining rejalarini tuzish. To'garak qatnashchilarining faolligini oshirish yo'llari. Ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish. O'quvchilar ishlab chiqargan mahsulotlar ko'rgazmalari. O'quvchilarning kasbiy mahorat tanlovlari.

Hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlari uyushmalari va uning istiqbollari

Halq hunarmandchiligi bo'yicha ko'rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalari. Xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlashdagi ish usullarini o'rganish.

O'zbekistondagi ishlab chiqarish turlari

O'zbekiston xalq xo'jaligida, sanoat va qurilishda moddiy ishlab chiqarish asoslari va uning tarkibi, o'zaro munosabati, bir-biriga bog'liqligi.

Texnologik jarayon haqida asosiy tushuncha

Yangi texnika va ilg'or texnologiya, uning ifodalanishi. Mehnat predmetiga mexanik ta'sir etish (Texnologiya va dizayn yo'nalishi-materiallarni kesish, qirqish, birlashtirish, payvandlash, servis xizmati yo'nalishi-gazlamalarning olinishi, ularni bichish-tikish, parдозlash, mahsulotlarga birinchi va ikkinchi ishlov berish, yarim fabrikatlar va h.k)

Kasb tanlashda uchraydigan xatoliklarni oldini olish omillari

Kasb tanlashda uchraydigan tipik xatoliklar. Kasb tanlashdagi ongliklik va mustaqillik. Kasblarning murakkablik omillarini taxlil qilish.

Kasb tanlashga doir reja tuzish.

Kasb egallash va ishga joylashishga doir shaxsiy reja tuzish . Kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash. Tanlangan kasb hunarga doir ma'lumotlar to'plash.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Yoshlarni kasb hunarga yo'naltirishning nazariy shart-sharoitlari: fanning mazmuni, maqsadi va vazifalari.

Kasb hunarga yo'naltirish asoslari tog'risidagi ta'limot: fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot; kasbni to'g'ri tanlashning ahamiyati; umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishini shakllantirish.

Mehnat ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar: o'qituvchining kasb hunarga yo'naltirishdagi faoliyati va boshqaruvchanligi; mehnat o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar; o'qituvchining psixologik-pedagogik, umumkasbiy va tayyorgarligi. Kasbga yo'naltirish bosqichlarining mazmuni: kuzatish; diagnostik suhbatlar;

Kasb hunarga yo'naltirish ishining maktab tizimi. O'qituvchining shaxsi, fan o'qituvchilari, sinf rahbari; o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari. Ta'lim muassasalarida kasb hunarga yo'naltirish metodikasi. Kasb hunarga yo'naltirish komissiyalarini tashkil qilish; o'qituvchilar bilan metodik ishlarni tashkil qilish; o'quvchilar bilan ishlash; ota-onalar bilan ishlash.

Kasb hunarga yo'naltirishning tarbiyaviy ahamiyati. Kasblar xarakteristikasi – profессиogramma.

Kasb hunarga yo'naltirish ishlariga qo'yiladigan talablar. Maktabda mehnat ta'limi darslarida kasb hunarga yo'naltirish, boshqa soha mutaxassisliklar bilan tanishtirish, o'quv muassasasi atrofidagi korxonalar bilan tanishtirish.

Ta'lim muassasalaridan tashqari kasb hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil qilish. Ekskursiyalarni tashkil qilish, kasb hunarga yo'naltirishda ommaviy axborotlar vositalarining ahamiyati.

Kasb hunarga yo'naltirish ishlarining ijtimoiy asoslari. Kasb hunarga yo'naltirish ishlarining psixologik asoslari. Kasb hunarga yo'naltirish ishlarining fiziologik asoslari. Kasb hunarga yo'naltirish ishiga rahbarlik qilish va uni rejalashtirish.

Bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarni maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish ishiga tayyorlash tizimi.

Kasb-hunarga yo'naltirishning tarkibi. Sinf rahbari. Sinf rahbarining kasb hunarga yo'naltirishdagi o'rni. O'quv muassasasi rahbarining kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishi. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining vazifasi.

Ta'lim muassasasidan tashqari tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning ish mazmuni. Talabalarni kasb -hunarga yo'naltirish ishiga tayyorlash mazmuni.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Laboratoriya ishlarida talabalar kasb hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil qilish, kasb turlari, turkumlari, bo'limlari, guruhlariga ajratish, kasb tanlash formulasini tuzish, ishchi kasblari bilan tanishtirish bo'yicha amaliy ko'nima va malaka hosil qiladilar.

Laboratoriya ishlarining tavsifiya etiladigan mavzulari:

1. Xalq xo'jaligidagi kasblar ularning tasnifi.
2. Akademik litseylar va kasb hunar kollejlarning yo'nalishi, ularning bir-birdan farqi, umumiy tomonlarini tahlil qilish.
3. Kasblarning tiplari
4. Kasblarning turkumlari, bo'limlari, guruhlari.
5. Kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish.
6. Kasb tanlashda onglik va mustaqillik.
7. Kasbning insonga qo'yadigan talablari.
8. Kasb tanlashda yo'l qo'yiladigan tipik xatolar.
9. Professional qiziqish va moyilliklar.
10. Professional qiziqish va moyilliklarni shakllantirish.
11. Kasb tanlashda qobiliyatning ahamiyati.
12. Kasbga yaroqlilik.
13. Kasb tanlashda salomatlikning ahamiyati.
14. Kasblarning tibbiy jixatdan nomuvofiqligi.
15. Kichik mutaxassislarni tayyorlash tizimi.
16. Oliy ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlash.
17. Professional reja to'g'risida tushuncha.
18. Professional rejalarni amalga oshirish bosqichlari.
19. Kasb hunarga qiziqishni aniqlash testini tuzish.
20. Kasb hunarga qiziqishni aniqlash anketasini tuzish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- kasb tiplari, guruhlari sinflari, o'quvchilarning xususiyatlarni o'rganib tashxisdan o'tkazadilar va tavsiyalar beradilar;
- kasblar klassifikatsiyalarining umumiy ta'rifi;
- talabalarga «kasb» tushunchasining ma'nosini yoritib berish;
- ularni kasblarning klassifikatsiyalari bilan tanishtirish;
- talabalarga har bir soha kasblarining jamiyatda tutgan o'rnini haqida ma'lumot berish;

Mustaqil ta'limning tavsiya etiladigan mavzulari:

1. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasi va metodikasi.
2. Kasbga yo'naltirish asoslari to'g'risidagi ta'limot: fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot; kasbni to'g'ri tanlashning ahamiyati; umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishni shakllantirish.
3. Mehnat ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar: o'qituvchining kasb hunarga yo'naltirishdagi faoliyati va boshqaruvchanligi; mehnat o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar; o'qituvchining psixologik-pedagogik, umumkasbiy tayyorgarligi. Kasbga yo'naltirish bosqichlarining mazmuni
4. Kasb-hunarga yo'naltirish ishining maktab tizimi.
5. O'qituvchining shaxsi, fan o'qituvchilari, sinf rahbari; o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari.
6. Qiziqishlarni aniqlash bo'yicha anketa so'rovnoma tuzish.
7. Qobiliyatlarni aniqlash usuli bo'yicha test tuzish.
8. Kasblarning tizimli ro'yxati va ulardan foydalanish.
9. O'quv muassasalarida kasb hunarga yo'naltirish metodikasi. Kasb hunarga yo'naltirish komissiyalarini tashkil qilish, o'qituvchilar bilan metodik ishlarni tashkil qilish, o'quvchilar bilan ishlash; ota-onalar bilan ishlash.
10. Kasb-hunarga yo'naltirishning tarbiyaviy ahamiyati.
11. Kasb tanlashning an'anaviy usullari haqida.
12. Ekskursiyalarni tashkil qilish, kasb hunarga yo'naltirishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati.
13. Sinf rahbari. Sinf rahbarining kasb hunarga yo'naltirishdagi o'rni. O'quv muassasasi rahbarining kasbga yo'naltirish ishini tashkil etishi. O'quv ishlari bo'yicha mudir va o'rinbosarlarining vazifasi.
14. Psixologik-pedagogik fanlarni o'rganishda talabalarni kasb hunarga yo'naltirish ishiga nazariy-metodik jihatdan tayyorlash.
16. Psixologiya fanining kasb hunarga yo'naltirishdagi ahamiyati.
17. Pedagogika fanining kasb hunarga yo'naltirishdagi ahamiyati.
18. O'quvchilarni ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali kasb-hunarga yo'naltirish
19. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirish.
20. Kasb hunarga yo'naltirish tashxis markazlarinig faoliyatini tahlil qilish.

Fan dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti Didaktik vositalar

Didaktik vositalar: metall kesish stanoklarining klassifikatsiya jadvali, kesuvchi asbob turlari, texnologik jarayon kartalari, tarqatma materiallar.

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati Asosiy adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234bet.
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. -T.:FAN. 2004. 120 b.
2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.
3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.
4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. -Toshkent: O'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.ziyonet.uz
- 2.www.pedagog.uz

